



# TIBBIYOT NOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 07 2021 YIL 24 AVGUST

**So'nggi besh yil ichida mamlakatimizda tibbiy ta'lif tizimini isloq qilish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish va yuqori malakali mutaxassisni shakllantirishda tibbiyot oliv o'quv yurtlarida talabalarni tayyorlash, ta'lif jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga e'tibor kuchaytirilmoqda.**



## O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga

### SO'NGGI BESH YILDA TIBBIY TA'LIM TIZIMIDA QANDAY O'ZGARISHLAR RO'Y BERDI?

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori Alisher SHODMONOV ana shunday keng ko'lamli islohotlar samarasi hamda tibbiy ta'limning ahamiyatlari jihatlari, boshqa ta'lif turlaridan farqi hamda mavjud muammolar xususida so'z yurdi.

— Bo'lajak shifokorlarni o'qitish juda ham mas'uliyatli vazifa bo'lib, O'zbekiston tibbiyotining ertangi taqdiri biz tahsil berayotgan talabalarga bog'liq, — deydi A.Shodmonov. — Shunday tibbiyot kadrlarini tayyorlashimiz kerakki, ular o'zlarining to'g'ri tashxisi, muolajasi bilan har bir bemor umrini uzaytirishga, salomatligini tiklashga xizmat qilsin. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi targ'ibotchilariga aylansin. Shu maqsadda bugungi kunda talabalarga nafaqat nazariy bilim, amaliy ko'nigmalar hamda shifokor tajribasi singdirilishiga ahamiyat qaratilmoqda.

Kasbiy mahorat va ko'nigmalar o'qituvchi tomonidan o'quvchiga bilim bilan bir qatorda "qo'ldan qo'lga" o'tkazilmaydi. Bu ko'nigmalar

talabaning tajribali o'qituvchilar tomonidan tashkil etiladigan mustaqil faoliyati natijasida shakllanadi.

Tibbiyot oliv o'quv yurtlarida biz shunday sharoitni yaratishimiz kerakki, bunda talabada doimiy ravishda o'zini o'zi takomillashtirish va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlari rivojlanishi kerak. Chunki tibbiy ta'lif oliygojni tugatgandan so'ng yakunlanmaydi, balki "butun umr" davom etadi.

Tibbiy ta'lif sifati to'g'risida biz juda ko'p so'z yuritamiz, ammo ta'lif sifati deganda nimani tushunish kerak, uni qanday o'lchash va qanday yaxshilash mumkin? Bu savollarga javoblar shunchaki oddiy emas. Yuqori sifatli ta'lif, shu jumladan, tibbiy ta'lif — bu ta'lif dasturlarining mijozlar talablari va ta'lif standartlariga mosligi, manfaatdor tomonlarning ta'lif sifatidan yuqori darajada qoniqishi, ta'lif muassasasi o'qituvchilari va xodimlarining o'z ishlaridan mammun bo'lislari, jamiyatga ijobiya ta'sir ko'rsatishi, jamiyat a'zolarining umumiy madaniyati va bilim savyasining ortishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda tibbiy ta'lifning ustuvor yo'nalishlarida global o'zgarishlar yuz berdi: tizimdan jarayonga, so'nggi o'n yillikda esa ta'lif natijalariga o'tildi. Bu ta'lif jarayoniga yangi o'qitish texnologiyalari, jumladan, muammoli, elektron, aralash, simulyatsion va boshqa turlarni faol joriy etish bilan namoyon bo'ldi.

Shuni tan olish kerakki, bugungi kunda yurtimizdagagi tibbiyot oliv o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi xalqaro standartlarga mos kelmaydi. Bizning o'quv binolarimiz, o'quv xonalarimiz va laboratoriyalarimiz vaqt talablariiga javob bermaydi. Shu bilan birga, biz doimo ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini izlaymiz. Istalgan natijaga erishish uchun biz rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalarini inobatga olishimiz va barcha yaxshi tomonlarini tibbiy ta'lif tizimiga kiritishimiz kerak.

**Insoniyat boshdan kechirgan ko'p epidemiyalar  
to'g'risida bilamiz. Eshitganmiz, o'qiganmiz. Odatda  
epidemiya tarqalgan mamlakatlarda birdamlik bo'lmasa,  
odamlar hukumat ko'rayotgan chora-tadbirlarga loqayd  
qarasa, talafotdan qutulish mushkul.**

## **VAKSINASIYA – BURCH VA MAS'ULIYAT DEMAK**

Kuni kecha Prezidentimiz raiisligidagi o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'kidlanganidek, pandemiyadan imkon qadar yo'qotishlarsiz o'tishimiz va keyingi to'lqinlarga yo'l qo'ymaslik uchun bizdan talab qilinadigan uchta muhim shartga qat'iy amal qilishimiz lozim. Zero, buning uchun barcha imkoniyatimiz mavjud.

Virusdan himoyalanish va uni yengishning eng muhim sharti bo'lgan vaksinasiya bizga yaratilgan imkoniyat ko'plab davlatlar, xalqlar uchun havas. Bugungi kunga qadar yurtimizga 4 turdag'i vaksina olib kelindi. Vatandoshlarimizga qaysi turdag'i vaksina bilan emlanish bo'yicha tanlov imkoniyati berildi. Lekin biz shu imkoniyatdan to'laqonli foydalana olmayapmiz.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, e'tibor qaratishimiz zarur bo'lgan ikkinchi masala — shaxsийа gigiyena va ijtimoiy masofani saqlash talablariga rioya qilish, jamoat joylarida tibbiy niqobda yurishga nisbatan yengil qarash kayfiyati paydo bo'ldi. Vaholanki, o'tgan yili karantin talablariga qat'iy rioya etib, muayyan ko'nikmaga ega bo'lgandik.

Uchinchi muhim masala — kasallik yengil kechayotgan va uy sharoitida davolanayotgan yurtdoshlarimizning dori-darmomni palapartish iste'mol qilishining oldini olish. Tan olish kerak, o'tgan bir yarim yil davomida mutaxassislarimiz koronavirusni davolash borasida yetarli tajriba

to'pladi. Biroq ayrim yurtdoshlarimiz bu tajribani nazar pisand qilmay, mutaxassis tavsiyasiga emas, balki qo'ni-qo'shnisi yoki tanishining gapiga ko'proq qulqoq solyapti. Turlituman dorilarni iste'mol qilib, og'ir ahvolga tushyapti.

Mana shu holatlarni inobatga olib, Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy-pedagogik jamoasi talabalarga murojaat bilan chiqdi. Chunki aholi orasida eng harakatchan qatlam — yoshlari. Ular hamma joyda hoziru nozir — ko'chada, jamoat transporti, o'quv kurslari, madaniy markazlar, sport maydonlari, turli tadbirlar...

Xususan, Toshkent tibbiyot akademiyasida tahsil olayotgan 6 ming nafardan ziyod talaba yuqorida sanalgan joylarga qo'shimcha ravishda har kuni bemorlar oldida, shifoxona va klinikalarda bo'ladi. Demak, yoshlarni koronavirusga qarshi emlash — zarur va dolzarb masala. Bu, avvalo, burch va mas'uliyat, Vatanimiz osoyishtaligi va xalqimiz tinchligi, oilalarimiz farovonligi to'g'risida qayg'urish, degani.

Vaksinasiya tadbirlarida faol qatnashgan yoshlari to'lov-shartnomasi summasidan 10 foizli chegirmaga ham ega bo'lishi tushuntirildi. Bugun aholi orasida vaksina to'g'risida salbiy munosabatlar, afsuski, yo'q emas. Bu esa koronavirusni yengishda yurtdoshlarimiz hamjihatligiga to'sqinlik qilayotgan eng katta omil.

Ommaviy emlanish — koronavirus pandemiyasini



yengishning yagona yo'lli. Mamlakatimizda barcha emlanmas ekan, bu masalani hal qilib bo'lmaydi. Kasallik aholi orasida aylanishda davom etaverishi mumkin. Butun dunyodagi sarosimali vaziyat bizga ko'p jihatdan saboq bo'lishi darkor. Ko'z o'ngimizda odamlar hayotdan ko'z yumyapti. Ming afsuski, ular orasida bolalar va homilador ayollar ham bor.

Aql yuritadigan bo'lsak, vaksinasiya bir odamni emas, xalqni o'ylab qilinayotgan g'amxo'rlik. Agar birlashib, ahillik bilan 70 foiz aholini emlashga erishilsa, kasallik chekina boshlaydi.

Yana bir muhim jihat. Reabilitasiya jarayoniga jiddiy e'tibor qaratish kerak. Shu o'rinda Toshkent tibbiyot akademiyasining bolalar kasalliklari profilaktikasi kafedrasida shu mavzuga bag'ishlangan to'rtta dissertasiya ishi bajarilayotganini aytish joiz.

Yosh olimlarimiz tajribadan kelib chiqib, yurak-qon tomir va gemostaz tizimidagi o'zgarishlar, buyrak bezi va qalqonsimon bez funksiyasi faoliyatining pasayishiga doir to'rtta ilmiy ishga qo'l urdi. Bu esa, yaqin kelajakda bolalarni reabilitasiya qilish jarayonini yaxshilashga hissa qo'shadi.

**Turdiqul BOBOMURODOV,  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
prorektori**



## Kuni kecha davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasi muxbiriga intervyu berdi. Asosiy masala mamlakatimiz yoshlari va ularga bo'lgan e'tibor borasida suhbat bordi.

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ta'lif olishi, mehnati qilishi, bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Yurtimizda 2021 yilning «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili», deb e'lon qilingani buning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi. «Yangi O'zbekiston»ni bunyod etish jarayonida yoshlarning o'rni va asosiy vazifalari nimalardan iborat, deb bilasiz?

Muloqot davomida davlatimiz rahbari yoshlarga qaratilgan tubdan yangicha e'tibor, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni atroficha to'xtalib o'tib, bugungi kun yoshlarni xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi, deb e'tirof etdi. Keng ko'lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgani, aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlar, innovatsion texnologiyalar, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettrishda yetakchi o'rın tutishini ta'kidlab o'tdi. Ma'lumki, yoshlar yangicha fikrlesh, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rtaga tashlab, ularni amalga oshirish, muammolarni ijodiy va nostonart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilimi olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adapbiyat, san'at va sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarga to'xtalib o'tildi. Buyuk allomalarimiz ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirgani va umumbashariy tafakkur rivojiga beqiyos hissa qo'shgani tarixdan yaxshi ma'lum.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida "Biz bu yo'lda katta ishlarni boshladik. Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatdosh kadrlar tayyorlash maqsadida oliygochlarni soni 141 taga yetkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta'lif muassasasining filiallari ochildi. Holbuki, 2016 yilda respublikamizdagи oliygochlarning soni 77 ta edi. Qisqa muddatda bu borada qariyb ikki barobar o'sishga erishganimiz, hech shubhasiz, yoshlarimiz, butun jamiyatimizning intellektual

e'tibor borasida Prezidentimiz "Biz 2030 yilga qadar maktab, litsey va kollej bitiruvchilarini oly ta'lif bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazishni reja qilganiz va bunga albatta erishamiz". Prezident ishonchini oqlash ilm-ma'rifat sarchashmalaridan bahramand bo'lib bu oliy maqsadga erishish albatta bugungi kun o'g'il-qizlardan chuqur bilim olish va puxta maqsad sari odimlash talab etiladi. Bu yil Toshkent shahrida eng yuksak xalqaro talablarga javob beradigan «Yangi O'zbekiston» universiteti

mamlakatimiz yoshlari uchun qo'shimcha 30 dan ortiq yangi imtioz va imkoniyatlari yaratish ko'zda tutilganligi yurtboshimiz tomonidan ertangi kun egalarini porloq istiqboli uchun qilindi.

Yurtboshimiz "Bilasizmi, dunyodagi davlatlar, xalqlarning rivojlanish darajasini ko'rsatadigan mezonlar, parametrler ko'p. Lekin men uchun shu boradagi eng muhim mezon – bu yoshlarimizning baxti", deya e'tirof etdi. Farzandlari doimo izlanish va intilishda bo'lgan, yuksak marralarni ko'zlab, oldinga qarab intiladigan xalq va davlat o'z oldiga qo'yan maqsadlarga albatta yetadi. Chunki bunday harakatlar ertaga qudratli to'lqingga aylanib, hayotimizni bugun kechagidan, ertaga bugungidan yaxshi va obod qilish, ongu tafakkurimizni yuksaltirishga olib keladi.

Yangi O'zbekistonning bugungi yoshlari chin ma'noda davlat rahbarining qanoti, ertangi kun egalaridir. Bugun yoshlarga berilayotgan har bir imkoniyat har bir sohada o'zining amaldagi isboti bilan namoyon bo'lmoxda. Shuhbasiz kelajakka intilib yashash azmu shijoat, Yurtboshi ishonchi keljak egalarining ertangi zaminiga tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lif tizimidagi o'zgarishlar akademik litsey hamda umumta'lif maktabi o'quvchilariga berilayotgan keng imkoniyatlar ertangi istiqbolimizning negizi bo'lib xizmat qilishi shuhbasizdir. Bugungi shiddatli zamonda yoshlarning intilishi kelajakka yorug' yuz bilan boqishi ertangi kunning nurafshon shamchirog'i bo'lib xizmat qiladi.

**Nigora HAKIMOVA,  
TTA akademik litseyi  
Yoshlar bilan ishslash hamda  
ma'naviy-ma'rifiy ishlari  
bo'yicha direktor o'rinosari**

## ENG MUHIM MEZON – YOSHLARIMIZNING BAXTU KAMOLIDIR

*"Yangi O'zbekistonning nafasi, sur'ati va shiddatini avvalo aziz o'g'il-qizlarimizning azmu shijoati, dadil fikr va takliflarida, erishayotgan dastlabki yutuqlarida ko'raman".*

**Sh.MIRZIYOEV**

salohiyatini oshirish, zamonaviy bilim, kasb-hunarlarga yana-da yaqinlashtirish yo'lidagi harakatlarimiz natijasidir.

Keyingi besh yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming nafr yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Bu – umumiyo qamrov 28 foizga yetdi, deganidir. O'zingiz qiyoslab ko'ring, 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko'paytirilgani, o'tgan yilgi tajribamizni yangi bosqichga ko'tarib, ehtiyojimand oilalarga mansub 2 ming nafr qizlarga bu yil oliygochlarga kirish uchun alohida grantlar ajratilgani yoshlarimiz kelajagini ta'minlashga qaratilgan amalii e'tiborimiz namunasidir", deya yoshlarga berilayotgan ulkan imkoniyatlar debochasiga to'xtalib o'tdi. Bugungi kunda akademik litsey va kasb-hunar ta'limi bitiruvchilariga bo'lgan

tashkil etilishi va bu maskanda eng bilimli va iste'dodli yoshlarimizning tahsil olishi davlatimiz rahbarining yoshlarga bergan ulkan imkoniyatlari debochasi hisoblanadi. Hozirgi vaqtida yurtimizda «Yangi O'zbekiston mifik tabostonasidan boshlanadi» degan g'oya asosida mifik tab ta'limi tizimida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Toshkent shahri va hududlarimizda Prezident mifik tablari, ijod va ixtisoslashgan mifik tablari soni ko'payib bormoqda.

Davlat rahbari o'z nutqida bu boradagi ishlarni nafaqat izchil davom ettrilmoqda, balki yana-da yuqori bosqichga ko'tarilayotgani va shu maqsadda 2021 yil 13 iyulda qabul qilingan «Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmon bu fikrni tasdiqlashini ta'kidlab o'tdi. Mazkur hujjatda



# SO'NGGI BESH YILDA TIBBIY TA'LIM TIZIMIDA QANDAY O'ZGARISHLAR RO'Y BERDI?

Boshi 1-betda

Hozirgi kunda respublikamiz tibbiyot ta'limi oldida talabalar sonining ortib borishi, ularning o'qitish uslubiga bo'lgan talablarining o'zgarishi va nazariya hamda klinik amaliyat o'rtasidagi bo'shlinqi kamaytirish zarurati singari bir qator muammolar turibdi. Bundan tashqari, bemorlarning xavfsizligi, axloqiy muammolar, sog'liqni saqlash xodimlari mas'uliyatining ortib borishi, talab qilinadigan kasbiy malakalarning yuqori darajasi, muolaja va usullarning tezkor rivojlanishiga e'tibor kuchaymoqda. Bularning barchasi mavjud o'quv vositalaridan foydalangan holda o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirishni talab qiladi.

Bugungi kunda tibbiyot sohasida yuqori malakali mutaxassislarning keskin tanqisligi sezilmoqda. Shu sababli, oliy tibbiy ta'lrim sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri, nazariy bilimlarning tegishli darajasini saqlab qolgan holda, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning amaliy yo'nalishini sezilarli darajada kuchaytirish zarurati ekanligi tabiiydir.

Innovasion ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga joriy etilishi O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashning raqobatbardoshligini oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan talabni belgilaydi.

Hukumatimiz tomonidan tibbiy ta'lim sifatini oshirish uchun ko'p harakatlardan qilinmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 7 dekabridagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni

saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi, 2019 yil 6 maydag'i "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa yana bir qancha hujjalarning qabul qilinishida ko'rish mumkin.

Tibbiyot oliygochlari bitiruvchilariga integralashgan nazariy va klinik bilimlar, ko'nikmalarni singdirish, yuqori tibbiy texnologiyalarni o'zlashtirishda yordam berish va bo'lajak shifokorda ijtimoiy moslashuv qobiliyatini shakllantirish zarur. Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali talabalarda kuchli motivatsion munosabatlar, chuqur ixtisoslashuv, intellektual va shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va yetuk tibbiyot xodimini tayyorlash mumkin bo'ladi.

Tibbiyot oliygohi o'qituvchisining vazifasi talabalarning mustaqil faoliyatini aniq tashkil etish va unumli boshqarishdir. Ya'ni vazifalarni belgilash, ularni hal qilish yo'llarini korreksiya qilish, talabalarning sa'y-harakatlari natijalarini qayd etish va baholash. Agar talaba mustaqil ravishda bilim olishni o'rganmasa, u holda undan o'z faoliyatini to'g'ri tahlil qila oladigan va tanqidiy mushohada qilishga qodir yaxshi shifokor chiqmaydi.

Ammo bugungi kunda barcha urinshilarimizga qaramay, tibbiyot oliy o'quv yurtlari bitiruvchilar yuqori texnologiyali, innovasion uskunalarda ishlash uchun amaliy ko'nikmalarga ega emaslar. Ko'pincha ularning bilimlari faqat nazariya bilan cheklangan. Faqat bir qator yosh shifokorlar chet el klinikalarida yoki ta'lim muassasalarida o'z malakalarini oshirishi mumkin, chunki ularning narxi ancha yuqori. Shifokorlar olingan ko'nikmalarni doimiy ravishda amalda qo'llashi lozim.

Tibbiy ta'limga an'anaviy shakllari shifokorning bemorlar

bilan faol ish olib borishidan oldin to'liq xavfsiz va samarali o'qitishni ta'minlamaydi. Bundan tashqari, shifokorlarning kompetentlik darajasini nazorat qilishning amaldagi shakllari nomuvofiq yoki yetarli emas.

Amaliy darslarda talaba yodlangan matnni shunchaki qayta aytib bermasligi, balki amaliy muammolarni hal qilishni o'rganishi kerak. Talabalarning vazifasi o'qituvchi-murabbiy va maslahatchi yordamida mustaqil ravishda o'qishdir. Avvalo, bu talabaning motivasiya nuqtai nazaridan o'z maqsadi va qadriyatlarini to'g'ri tushunishini talab qiladi: men nimani va nima uchun o'rganishni xohlayman. Bunda intellektual va kognitiv intilishlarni anglash ham muhim hisoblanadi – konseptual bilimlarni, faoliyatning me'yordi va usullarini egallash muhim ahamiyatga ega: men o'rganishim mumkin, men nimani va qanday qilib bajarishni aniq bilaman.

Biroq nafaqat o'qitishning innovation texnologiyalaridan foydalanan, balki ular orqali talabalar namoyon qila olishi mumkin bo'lgan aniq natijalarga erishish kerak. Ushbu barcha to'planib qolgan muammolarni hal qilish uchun tibbiy ta'limga simulyatsion o'qitish tizimini oliy o'quv yurtidan boshlab uzlucksiz ta'lim bosqichigacha keng joriy etish zarur.

Amaliyot o'taydigan va shifokorlar malakasini oshiradigan dunyodagi ko'plab tibbiyot universitetlari va yetakchi klinikalarida simulyatsion uskunalar va texnik xarakteristikalarini haqiqiy bemorga maksimal ravishda yaqinlashtirilgan robot-patsiyentlar o'rnatilgan. Ularda talabalar bilim darajasini baholash va barcha yo'nalishlardagi shifokorlarni akkreditatsiya qilish tizimi joriy qilingan.

Davomi 5-betda



## SO'NGGI BESH YILDA TIBBIY TA'LIM TIZIMIDA QANDAY O'ZGARISHLAR RO'Y BERDI?

Boshi 1,4-betlarda

Simulyatsiya – bu real jarayonning bajarilishi yoki tizimning ma'lum vaqt davomida ishlashiga taqid qilishdir. Simulyatsiya ko'plab sharoitlarda, masalan, ishlashni optimallashtirish texnologiyasini simulyatsiya qilish, xavfsizlikni loyihalash, sinovdan o'tkazish, o'qitish, ta'lim va video o'ynlarda qo'llaniladi. Tibbiy mutaxassislarni nazari va klinik tayyorlash jarayonida shaxslararo muloqot, klinik fikr yuritish va rejalashtirish kabi ko'nikmalardan ham foydalaniлади.

Bugungi kunda tibbiyat olyi o'quv yurtlarida talabalar soni keskin ko'payganligi uchun har bir bemorga 8-10 nafardan talaba to'g'ri kelmoqda. Etika tamoyillari nuqtai nazaridan bu to'g'ri emas, chunki og'ir bemorlarga alohida e'tibor berish va ularning kunlik rejimiga rioya qilish talab qilinadi. Hattoki so'rab-surishtirish kabi zararsiz muolaja ham bemorni charchatib qo'yishi mumkin. Tibbiy ta'limning ushbu muammolarini hal qilish uchun simulyatsion texnologiyalar zarur. Bu esa barcha algoritmlar va amaliy ko'nikmalarni bemorning sog'lig'iga zarar yetkazmasdan bajarish, talabalar va shifokorlarga favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni o'rgatish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtida rivojlanayotgan davolashning minimal invaziv usullarini qo'llash, tibbiy asbob-uskunalardan samarali foydalaniшни o'rganish uchun ham simulyatsion o'qitish muhimdir. Talaba bemorning yoniga amaliy ko'nikmalarni bajarishni avtomatizm darajasiga yetkazgandan keyingina kelishi kerak. Bu talabaning bemor yonida o'zini dadilroq his qilishiga imkon beradi. Simulyatsion

mashg'ulotlar davomida klinikada aniq simptomlari bo'lgan bemor bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, o'quv dasturida ko'zda tutilgan barcha kasalliklar bilan tanishishga imkon yaratiladi. Eng muhimi, simulyatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish jarayonida har bir talaba uchun alohida rejalashtirilgan amaliyot o'tkazish imkoniyati mavjud. Simulyatsion o'qitish jarayoni amaliy ko'nikmalar, algoritmlar va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish va mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish uchun 2018 yilda Toshkent tibbiyat akademiyasi qoshida zamонавий robot simulyatorlar, mulyajlar, fantomlar va 3D-dasturlar (virtual bemor, patolodji 3D) bilan jihozlangan simulyatsion ta'lim markazi tashkil etildi. Toshkent tibbiyat akademiyasida talabalar 1-bosqichdan boshlab simulyatsion markazda ta'lim olishadi, u yerda bemorlarni parvarish qilish ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun alohida xonalar mavjud. Katta kurs talabalarini va magistrlarga o'quv dasturiga muvofiq tibbiy manipulyatsiya (vena ichiga dorilarni yuborish, mushak ichiga in'eksiya qilish, oshqozonni yuvish va boshqalar), yurak-o'pka reanimasiyasi asoslari, birlamchi tibbiy yordam ko'satish, akusherlik ko'nikmalari, bolalarga yordam berish ko'nikmalari, urologiya, onkologiya, otorinolaringologiya, oftalmologiya, endoxirurgiya (laparoskopiya, gisteroskopiya) bo'yicha alohida xonalar tashkil etilgan.

2020-2021 o'quv yilida Toshkent tibbiyat akademiyasida birinchi marotaba davolash va tibbiy pedagogika yo'nalishlari 6-kurs

talabalarining yakuniy davlat imtihonlari simulyatsion markazda bo'lib o'tdi. Bitiruv imtihonlarida inson omilining rolini pasaytirish bitiruvchilar o'rtasida stressning kamayishiga va ob'ektiv baholashga olib keldi.

Respublikamiz uchun simulyatsion o'qitish yangi soha ekanligini inobatga olgan holda TTA ma'muriyati Rossiyaning ROSOMED kompaniyasi (Rossiyada tibbiyotda simulyatsion ta'lim jamiyat) bilan hamkorlik aloqalarini o'matdi. 2021 yil 28 maydan 5 iyungacha TTAning 124 nafar xodimi I.M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti fundamental tibbiyat fakulteti Klinik modellashtirish va manual ko'nikmalar kafedrasi tomonidan tashkil qilingan simulyatsion o'qitish bo'yicha onlayn kurslarda ishtirok etdi. Treningni yakunlab, test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 70 dan ortiq o'qituvchi xalqaro sertifikatga ega bo'lishdi. 2021 yil 11 iyun kuni TTAda xalqaro ekspertlar ishtirokida simulyatsion o'qitish texnologiyalari bo'yicha mahorat darslari o'tkazildi.

Toshkent tibbiyat akademiyasi mamlakatimizdagi boshqa tibbiyat olyi o'quv yurtlari singari simulyatsion ta'lim bo'yicha endi birinchi qadamlarni qo'yamoqda. Ushbu tizimni yanada takomillashtirishimiz va rivojlantirishimiz lozim. Shuningdek, O'zbekiston tibbiyotining kelajagi bitiruvchilarimizning sifatiga bog'liqligini to'la anglagan holda barcha amalga oshirayotgan ishlarimiz zamirida tibbiyat olyi ta'lim dargohlarida ta'lim sifatini oshirish maqsadi mujassam.

**Mohigul QOSIMOVA yozib oldi**  
**O'ZA**



*O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligiga*

## HAQIQATNI KUYLAGAN ADIB

**Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan joriy yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligi keng nishonlanmoqda.**

Jonajon O'zbekistonimizning barcha go'shalarida atoqli adib tavalludiga bag'ishlangan muloqotlar, uchrashuvlar bo'lib o'tmoqda. Poytaxtimizning Chilonzor tumani Naqqoshlik ko'chasidagi adib yashagan xonadonda O'tkir Hoshimov xotirasiga bag'ishlab barelyef o'rnatishga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Xotira barelyefining tantanalı ochilishida adib va shoirlar, adabiyotshunos olimlar, yozuvchining qadrondorlari, ijodkor yoshlari jam bo'ldi.

Mamlakatimizda milliy adabiyotni, kitobxonlikni, ijodkorlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, milliy so'z san'atimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan ustoz yozuvchilarning xotirasini ardoqlash borasida ilgari misli ko'rilmagan ezgu ishlar olib borilmoqda.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Abdujabbor Abduvohitov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, taniqli adib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Xurshid Do'stmuhammad, adabiyotshunos Hamidulla Boltaboyev, O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultanov, "Sharq yulduzi" va "Zvezda Vostoka" jurnallari bosh muharriri Sirojiddin

Rauf mamlakatimizda adabiyot sohasi vakillarini qo'llab-quvvatlash doimiy e'tiborda ekanini ta'kidladi.

Adabiyotshunoslarning fikricha, ustoz O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi", "Odamlar nima derkin", "Shamol esaveradi", "Qalbingga qulq sol", "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari", "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" kabi asarlari adabiyot muxlislariga yaxshi ma'lum. Yozuvchining bir qancha asarlari ekranlashtirilgan. "Xazon bo'lgan bahor", "Inson sadoqati", "Vijdon dorisi", "To'ylar muborak", "Qatag'on" kabi drama, komediya, bir qator kinoseniyalar muallifidir. "Daftor hoshiyasidagi bitiklar" kitobi ijtimoiy-ma'naviy hayotda muayyan iz qoldirgan.

— Prezidentimizning O'tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligini keng nishonlashga oid qarori chiqqan kun nainki oilamiz, butun mamlakatimiz uchun bayramga aylandi, — dedi O'tkir Hoshimovning umr yo'ldoshi, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni sohibasi O'Imasxon Hoshimova. — Bunday ezgu tashabbus davlatimiz rahbarining ijod ahliga mehr va e'tiboridan so'zlaydi. O'tkir Hoshimov



haqiqatni, odamlarning dardu tashvishini o'z asarlarida aks ettirar edilar.

Xalqimizning ardoqli adibi xonadonida ajib xotira lavhi paydo bo'ldi. Rassom Sherzod Quryazov tomonidan ishlangan xotira barelyefi bu xonadonda O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov yashaganidan mo'jaz ishora berib turibdi.

**Nazokat USMONOVA,  
O'zA muxbirini**



## SPORT BILAN NAFISLIK VA SALOMATLIK SARI

**Toshkent tibbiyot akademiyasi "Shifokor" sport majmuasida akademiyaga biriktirilgan Olmazor tumanida joylashgan "Jiydali", "Xislat", "Shifokor", "Beruniy" hamda "Chig'atoy-Oqtepa" mahallalari sport jamoalari o'rtaida shaxmat, stol tennisi, voleybol sport turlari bo'yicha musobaqa o'tkazildi.**

Musobaqalarda yuqoridaq mahallalarda joylashgan yoshlardan iborat beshta mahallalrar jamoalari ishtirot etdi.

Tadbir so'ngida barcha sport turlari bo'yicha g'oliblar aniqlanib, Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston Liberal-

demokratik partiyasining Olmazor tumani hamda Toshkent shahar kengashi tomonidan ajratilgan qimmatbaho sovg'alarini bilan taqqirdirlandi.

**Yoshlar bilan ishlash,  
ma'naviyat va ma'rifat bo'limi**



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA  
TANLOV E'LON QILADI**  
(2021 yil sentyabr)

| No   | Kafedra   | Lavozim, shtat birligi   |
|--|---|--|
| <b>1-son davolash fakulteti</b>  |   |  |
| 1  | 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi                  | assistant – 1,0  |
| 2  | 1-son umumiylar bolalar jarrohligi                      | assistant – 1,0  |
| 3  | 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi  | dotsent – 1,0; assistant – 1,0   |
| 4  | 1-son fakultet va gospital jarrohlik                    | assistant – 1,0  |
| 5  | Otorinolaringologiya va stomatologiya                   | Otorinolaringologiya: dotsent – 1,0; assistant – 1,0<br>Stomatologiya: katta o'qituvchi – 1,0; assistant – 1,0 |
| 6  | Nevrologiya va tibbiy psixologiya                       | Nevrologiya: dotsent – 1,0; assistant – 1,0<br>Tibbiy psixologiya: assistant – 1,0                             |
| 7  | Oftalmologiya   | assistant – 1,0  |
| 8  | Anesteziologiya va reanimatologiya                      | Katta o'qituvchi – 1,0   |
| <b>2-son davolash fakulteti</b>  |   |  |
| 1  | Odam anatomiysi va klinik anatomiya                     | Odam anatomiysi: dotsent – 1,0; assistant – 1,0<br>Klinik anatomiya: assistant – 1,0                           |
| 2  | Patologik anatomiya                                     | assistant – 1,0  |
| 3  | Xirurgik kasalliklar                                    | katta o'qituvchi – 1,0; assistant – 1,0  |
| 4  | Onkologiya  | assistant – 1,0  |
| 5  | Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi                        | assistant – 1,0  |
| 6  | 1-con travmatologiya, ortopediya va XDJ                 | assistant – 1,0  |
| 7  | Bolalar kasalliklari propedevtikasi                     | assistant – 1,0  |
| 8  | 1-son ichki kasalliklar                                 | assistant – 1,0  |
| <b>Tibbiy pedagogika fakulteti</b>   |   |  |
| 1  | Normal va patologik fiziologiya                         | Normal fiziologiya: assistant – 1,0<br>Patologik fiziologiya assistant – 1,0                                   |
| 2  | Pedagogika va psixologiya                               | katta o'qituvchi – 1,0; o'qituvchi – 1,0   |
| 3  | 2-son ichki kasalliklar propedevtikasi                  | assistant – 1,0  |
| 4  | Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya      | Reabilitologiya, xalq tabobati: assistant – 1,0<br>jismoniy tarbiya: assistant – 1,0                           |
| 5  | 2-son fakultet va gospital terapiya                     | assistant – 1,0  |
| 6  | 2-son fakultet va gospital jarrohlik                    | Kafedra mudiri – 1,0; assistant – 1,0  |
| 7  | Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari                 | Dotsent – 1,0; assistant – 1,0   |
| 8  | Ftiziatriya va pulmonologiya                            | assistant – 1,0  |
| 9  | Psixiatriya va narkologiya                              | assistant – 1,0  |
| 10   | Klinik farmakologiya                                    | assistant – 1,0  |
| 11   | 3-son ichki kasalliklar                                 | assistant – 1,0  |
| 12   | 2-con travmatologiya, ortopediya, XDJ va neyrojarrohlik | assistant – 1,0  |
| <b>Tibbiy profilaktika fakulteti</b>                                       |   |  |
| 1  | Gistologiya va tibbiy biologiya                         | Gistologiya: assistant – 1,0<br>Tibbiy biologiya: assistant – 1,0  |
| 2  | Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya            | katta o'qituvchi – 1,0; assistant – 1,0  |
| 3  | Atrof-muhit gigienasi                                   | assistant – 1,0  |
| 4  | Epidemiologiya  | assistant – 1,0  |
| 5  | Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigienasi             | assistant – 1,0  |
| 6  | 2-son umumiylar xirurgiya                               | assistant – 1,0  |
| 7  | Dermatovenerologiya                                     | assistant – 1,0  |
| 8  | Gematologiya, transfuziologiya va klinik laboratoriya   | Gematologiya, transfuziologiya: assistant – 1,0<br>klinik laboratoriya: assistant – 1,0                        |
| <b>Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMX fakulteti</b> |   |  |
| 1  | Ijtimoiy fanlar   | katta o'qituvchi – 1,0; o'qituvchi – 1,0   |
| 2  | O'zbek va xorijiy tillar                                | Rus tili: o'qituvchi – 1,0<br>Chet tili: o'qituvchi – 1,0  |
| 3  | Tibbiy va biologik kimyo                                | Tibbiy kimyo: assistant – 1,0<br>Biologik kimyo: assistant – 1,0   |
| 4  | Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika      | assistant – 1,0  |
| 5  | Tibbiy radiologiya                                      | assistant – 1,0  |
| 6  | Allergologiya, hamshiralik ishi                         | assistant – 1,0  |
| <b>Malaka oshirish fakulteti</b>   |   |  |
| 1  | Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi                      | assistant – 1,0  |
| 2  | Simulyatsion ta'lim                                     | assistant – 1,0  |

**Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent  
tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.  
Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.**





**Respublikamizdag'i ta'lim maskanlari talabalarga bilim beradi, ilm salohiyatini mustahkamlaydi, hayotda o'z o'rnnini topishga ko'maklashadi, tarbiya beradi. Ba'zida esa bu maskan inson uchun yaqin do'st bo'lib, uni voyaga yetkazadi shu bilan bir qatorda o'zi tahsil olayotgan ilm maskani inson yuragining va hayotining bir parchasiga aylanadi.**

## MILLIY YUKSALISH GAROVI

Tibbiyot akademiyasida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar xorijning yetakchi tibbiyot muassalarida malaka oshirib kelishadi. Bir so'z bilan aytganda yuqori malakali mutaxassislardan iborat soha fidoiylari deyish mumkin. Dunyo bo'y lab xorijning yetakchi tibbiyot muassasalari aynan akademiyamizning hamkorlari hisoblanadi. Akademiyada mutaxassisleri yiliga 120 dan ortiq chet el amaliyotni o'tashadi va 100 dan ziyod xorijiy ta'lim muassasalarining mutaxassisleri akademiyaga taklif etilib, chet el muassasalari bilan qo'shma dasturlar amalga oshiriladi. Misol uchun joriy o'quv yilda ko'plab xorijiy ta'lim muassasalari yetakchi mutaxassisleri, pandemiya munosabati bilan "Zoom" platformasida ma'ruzalar o'qishdi. Xususan, ushbu o'quv yilining yakuniy ikki oyi mobaynida oltmishta yaqin konferensiyalar tashkil etildi. Bir so'z bilan aytganda bunday ilmiy hamkorlik akademiyada har o'quv yili tashkil etilib, tibbiy tajribalar almashinilib boriladi.

O'quv dargohida ta'lim masalalariga alohida va yuksak e'tibor berilib ustuvor natijalar kutiladi. Xususan ta'lim jarayonlari ikki: ma'ruza va amaliyot darslariga

bo'lingan bo'lib, har bir ma'ruza mashg'ulotlari keng va shinam xonalarda, prezentatsiya, slaydlar, zamonaviy ko'rgazmali ilmiy buyumlar, video va turli savolnomalar bilan olib boriladi. Amaliyot darslariga ham ana shunday yuksak e'tibor qaratilib, mashg'ulot mobaynida fanga oid ko'rgazmali qurollar, mulyaj va laboratoriya ishlari olib borilib, talabalarning mustaqil ishlari namoyish etiladi. Shu bilan birgalikda barcha talaba yoshlar mavzuga oid ma'lumotlarni o'zaro mustahkamlaydi va o'qituvchi tomonidan baholanadi. Har bir mashg'ulotga o'qituvchilar individual yondashib fan ma'lumotlarini yangiliklar bilan to'ldirib boradi. Bu jarayon esa talabalarning yanada ilmga bo'lgan muhabbatini oshiradi. Har bir ta'lim berayotgan muallim-ustozlar samimi, do'stona va har biri talabarni o'z farzandi kabi ko'rishi haqiqatdan ham ikkinchi ota-onasi sifatida talabaning yuragidan joy oladi. Akademiyamizda barcha o'qituvchi-ustozar ana shunday samimi insonlar bo'lib, doimo ularga e'tibor va e'zoz ko'rsatamiz.

Akademiyamizda talabalarning yanada ko'proq bilim olishi va izlanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Misol uchun oliygohning kutubxona binosi doimo talabalar

bilan gavjum. Kutubxona keng qamrovli kitoblarga ega bo'lib bir necha bo'limlarga bo'lingan, jumladan, ilmiy, badiiy va o'quv adabiyotlari bo'limlari mavjud. Bundan tashqari, tipografiya, virtual kutubxona, o'quv zali va boshqa keng va shinam xonalar talabalar foydalanishi uchun kompyuterlar taqdim etilgan.

Akademiyada Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ilmiy innovatsion g'oyalarini taqdim etish bo'limi, TTA Yoshlar ittifoqi, ma'naviyat uylari va shu kabi bo'limlari mavjud. Oliygohda doimo keng va talabalar miqyosida xalqaro tanlovlari, turnirlar, olimpiadalar o'tkazib boriladi. Shu bilan bir qatorda a'luchi, sportchi, she'r va hikoyalar yozuvchi, rassom va xonanda talabalar tanlovlarda munosib ishtirok etib kelishmoqda.

Ushbu ilm maskanida ta'lim olish men uchun katta faxr va quvonch demakdir. Mening oliygohga, o'qituvchi-ustozlarimga bo'lgan hurmatim baland va cheksizdir. Men shifokorlik ilmini a'lo darajada egallab, ustozlarim bergen bilimlarini oqlashga va kelajakda ma'suliyatli va bilimli shifokor bo'lishga hamda o'z qalb qo'rim bilan bemorlarni davolashga harakat qilaman. Mustaqilligimizning 30 yilligi hamda Toshkent tibbiyot akademiyasining 100 yilligi munosabati bilan barcha yurdoshlarimizni qutlab qolaman.

**Farruxjon ASHURBOYEV,  
Toshkent tibbiyot  
akademiyasi  
Xalqaro fakultet 3-bosqich  
talabasi**

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduoqirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobi  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir  
Бепул тарқатилади